

JADID HARAKATI VA JADIDLARNING BOLSHEVIKLAR DAVRIDAGI MA'NAVIYATGA BO'LGAN YONDASHUV

Musurmonova Xolida Alisherovna

Termiz Pedagogika Instituti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Jadidchilik (arabcha-yangi)-19 asr oxiri va 20 asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi hududlarida shakllangan yangi zamonaviy maktab, matbaa va taraqqiyotning ilg'or usul va yo'llarini yoqlab chiqqan ijtimoiy-ma'rifiy harakatdir. Jadidchilikni shakllantirishda ko'plab millat ziyolilari faol qatnashgan. Jamiyatni o'rta asrchilik illatlari madaniy qoloqlik va mustahkamlaka zulmidan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlatchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho'lpon, Pahlavon Niyoz, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Abdulla Qodiriy tashkilotga rahbarlik qilishdi. Bu harakat o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra 19 asr boshlaridagi mavjud bo'lgan diniy islohotdan farq qiladi.

ANNOTATION: Modernism (new in Arabic) is a social-educational movement that advocated new modern school, printing and advanced methods and ways of development, formed in central Asia, the Crime, the Caucasus and the Volga region at the end of the 19th century and first quarter of the 20th century. Many national intellectuals actively participated. To liberate the society from the evils of medievalism, cultural backwardness and superstition, to lead the people to the path of modern development and to build the foundations of national state. Jadidism movement Abdulla Avloni, Abdulla Qodiriy and Hamza headed the organization. This action is in essence in essence, it differs from the religious reforms that existed at the beginning of 19th century.

Tayanch so'zlar: Jadid, mustahkamlaka, ma'rifat, bolshevik, taraqqiyparvarlar, xonliklar, madaniyat, jadidism,

Keywords: new, strengthen, wisdom, bolshevik, progressives, khanil, cultural, jadidism

Bu harakat o'zining mazmun mohiyatiga ko'ra, 19 asr boshlarida mavjud bo'lgan diniy islohotchilikdan farq qiladi. Ogahiy, Nodira, Ahmad Donish, Turdi, Mahmur, Furqat, Muqumiy kabi ijodkorlar mansub bo'lgan avlodning qarashlari asosan ma'rifatparvarlik tamoyiliga tayanar edi. Jadidlar esa nafaqat ma'rifat balki jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilish, mavjud tartiblarni o'zgartirish yo'lidan bordilar. Jadidchilik harakati rivojini uch bosqich ajratish mumkin.

1) 19 asr 80-yil oxirida mamlakatimizda jadidchilik harakati paydo bo'ldi. Toshkentda Munavvarqori va Avloniy, Samarqandda -Munzim va Aziziy, mulla Qilich, Buxoroda-Jo'raboy Mahsum, Qo'qonda -Hamza, Namanganda-So'fizoda, olimlar maktab ocish, noshirlik, savodxonlikni oshirish borasida muhim ishlar ni amalga oshirdilar. Bu jarayon Ijohon urushi gacha davom etdi. Butun mamlakat bo'ylab ko'plab jadid maktablari faoliyat olib bordi. Shuningdek ma'rifatchilik, noshirlik, ilm-fan, adabiyoti, madaniyat -maorifni milliy asosga ko'chirishga intilishga kuchaydi.

2) Ijohon urushi Rossiya imperiyasidagi ahvolni yanada murakkablashtirish yubordi, uning hududida siyosiy harakatlar kuchayib ketdi. Bu davrda jadidchilik o'ta ijtimoiy-siyosiy ahamiyati kasb etib, uning g'oyalari asosida siyosiy partiyalar tuzildi.

3) 1917-yil oktabrida Rossiyadagi davlat to'ntarishidan keyin Qo'qonda

Turkiston Muhtoriyati tuzildi va oradan bir yil o'tib, bolsheviklar tomonidan zo'ravonlik bilan yo'q qilindi. Muhtoriyat rahbarlari uni e'lon qilishda ishtirok etgan yoki uni e'lon qilishda ishtirok etgan yoki unga xayrihox bo'lganlar ham badarg'a va quvg'in qilindi, qatag'onga uchradi. 20 asr boshlarida ijtimoiy-tarixiy voqealik va jadid taraqqiyparvarlik larning siyosiy va madaniy -marifiy maslamlari taqazo bilan jadid adabiyoti shakllandi. Binobarin o'sha davrdagi iqtisodiy hayotdagi maorif, matbuot va turmush tarzidagi qaror topayotgan islohotchilik kayfiyati adabiyot va sanoatni ham chetlab o'tmadi, ananaviy yo'sindagi adabiyot o'rniga yangi zamonaviy adabiyot yangi tur va janrlar hatto yangi adabiyot til shakllana boshladi, publistik adabiyot tanqid paydo bo'ldi barmoq baznidagi ijtimoiy ma'rifiy she'riyat, roman, hikoya, dramaturgiya maydonga keldi. Jadidchilik adabiyotining Behbudiy, Siddiq-Ajziy, Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda kabi o'nlab namoyandalari yetishib chiqdi. Hatto ananaviy adabiyot shakllarda ijod etgan Zavqiy, Nodim, Ibrat, Saidahmad,

Bayoniylar ijodida ham davr voqealıkları , zamonaviy g'oyalar aruz vaznida o'z ifodasini topdi. Bular ham tarqqiyparvarlar yoshlar qatori marifatparvarlik qarashlari sherga solib yoki maqola shaklida matbuot sahifalarida faol qatnashdilar. Shu o'rinda alohida takidlash zarurki ,jadidchilik adabiyoti ushbu harakat g'oyalarini aks ettiruvchi badiiy hodisa bo'libgina qolmadi. Balki shu harakat zamirida tug'ildi uning maqsad va vazifalari taqazosiga ko'ra maydonga keldi , o'sha davr ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatdi. Jadid maktablari xalqqa hamma narsadan burun ma'rifaat tarqatish ,zamonaviy ilm-fan singdirish zarurligini haqidagi fikrjadidlarning marifatchilik faoliyatidagi eng asosiy maqsad edi. Jadidchilikning poydevori tamal toshi usuli jadid maktabi edi .Zero"yangi" istilohi kirib kelishining o'zi aynan yangi usuldagi maktab bilan bog'liq. 1895-1910-yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand ,Qo'qon kabi barcha yirik shaharlar. ,qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligilarida o'nlab " usuli saviya" maktablari ochildi. 1903-yillar dan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi, lekin bu ishlar g'oyat qiyin kechdi.

Biroq mustabid hukumat va mahalliy muttasiblarning qarashlariga qaramay jadidchilikning say-harakatlari bilan "usuli jadid" maktablarining tarmog'i kengayib bordi. Chinakam ma'rifat o'chogiga aylangan ,madaniy tanazzul dan saqlanib va jamiyat manaviyatini mustahkamlashda katta ahamiyatga kasb etgan yangi usul maktablarining soni 1917-yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etdi. Jadidlarning maslagi amalga oshirishda maktablardan keyingi asosiy o'rinda matbuot egallaydi."Bugungi o'zbek vaqtli matbuotning tarixi maqolasida Abdulla Avloniy 1905-1917-yillar davomida o'zbek tilida 23 ta gazeta va 8 ta jurnal chop etilgani haqida malumotlar beradi. Afsuski sal o'tmay bu harakat bo'g'ib qo'yadi. Sobiq Ittifoq dvrida jadidchilik g'oyaviy -mafkuraviy jihatdan oqlanmadi, jadidchilik adabiyoti bo'gildi. Garchi 60-yillarda keyin bu harakatlar namoyondalari ning ayrimlari adabiy til doirasida tilga olina boshlangan bo'lsada ularga nisbatan umumiy taqiqlar o'zgarmay qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jadidchilik marifiy faoliyati Respubilka materiallari to'plami. Jamoat xavsizlik universiteti. 2022-yil 17-oktabr
2. Ma'naviyat asoslari darsligi

3. Jadidchiliklarning ma'rifatparvarlik harakati. MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI tavsiya etgan qo'llanma

4. Jadidchilik va uning faol harakatlari, maqsad va vazifalari, prinsiplari
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI tayyorlagan maqolla

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. Gazeta .uz
2. Kun.uz informatsion sayt
3. ARXIV.UZ MAQOLLARI